

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyevena	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
Xodjaye Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
Yusupov Farhod Adamboyevich	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLIISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH.....	214
Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich	
OLIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA.....	218
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	



MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN TURIZM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI.....	222
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA BYUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI ICHKI AUDITNING ANALITIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH.....	226
Meliboyev Askar Eshmuratovich	
ГЛИНИСТЫЕ СЛАНЦЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО И ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СЫРЬЕВАЯ СМЕСЬ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ПОРТЛАНДЦЕМЕНТА.....	231
Карабаев А.М., Абдуллаева Д.Ф., Абдуллаев У.Х. Андакулова Н.Н.	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННОМ ПРЕДПРИЯТИИ.....	237
Садиков Жахонгир Носирджанович, Даулетмуратова Дилбар Калмуқанмед кизи	
РАЗРАБОТКА МЕХАТРОННОГО МОДУЛЯ ДЛЯ ВЫРАВНИВАНИЯ ПОВЕРХНОСТИ МЕТАЛЛА ПОСЛЕ ЗАЛИВКИ.....	243
Мирджуроев Сарвар Алишер угли	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING TA'SIRI ..	246
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI	250
O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРЫ И ВЛАГОПОГЛОЩАЮЩИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИТНОГО ВЯЖУЩЕГО	259
Тургунбаев Уринбек, Шарипова Дилафруз, Худойбердиев Жамшид	
ИССЛЕДОВАНИЕ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОГО СОСТОЯНИЯ ЯЧЕЙКИ СВЕТОПРОЗРАЧНОГО ОГРАЖДЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЙСТВИИ ЛОКАЛЬНОЙ СЕЙСМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ.....	265
Давронов Олимбек, Туляганов Азиз	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	271
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	276
Abdullayeva Zulfiya Izzatovna	
MINTAQAVIY SANOAT KORXONALARINING BIZNES JARAYONLARINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (BPM, LEAN VA SIX SIGMA YONDASHUVLARI MISOLIDA) ..	279
Azimova Maxfuza Rashidovna	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI EKOLOGIK BOSHQARISH TAMOIYILLARI	284
Xolov Xamza Tojiddinovich	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZLASH	292
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich, Ibragimova Nodira Kadamovna	
A THEORETICAL MODEL LINKING GENDER EQUALITY AND MANAGEMENT EFFICIENCY.....	297
Ochilova Intizor Sadikovna	
QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELIDAN KUTILAYOTGAN DAROMADGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK MODEL ORQALI BAHOLASH.....	303
Sindarov Fazliddin Kaxramonovich	
MAMLAKAT KIMYO SANOATIDAGI KORXONALAR FAOLIYATIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONI VA ULARNING TAHLILI.....	312
Odilova Malika Abdushukur qizi	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQRISH SANOATIGA JORIY ETISH	317
Abdivoyitova Sarvinoz Abduxayit qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV HISOBI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	321
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	326
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning hozirgi holatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda bank tizimida investitsion faoliyatning rivojlanish darajasi, mavjud muammolar hamda ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilgan. Xususan, tijorat banklarining investitsion portfeli tarkibi, qimmatli qog'ozlar bozorida ishtiroki, kreditlash siyosati va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, banklarning real sektorni moliyalashtirishdagi roli hamda investitsion faoliyatni kengaytirishga xizmat qiluvchi zamonaviy mexanizmlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, investitsion faollikni oshirishda kapital yetarliligi, risklarni boshqarish tizimi va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilayotgan investitsion muhit va iqtisodiy islohotlar banklarning investitsion faolligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya, investitsion faoliyat, investitsion faollik, bank tizimi, iqtisodiy o'sish, investitsion portfel, qimmatli qog'ozlar, kreditlash, moliyaviy resurslar.

Аннотация: Данное исследование посвящено анализу текущего состояния наращивания инвестиционной активности коммерческих банков. В нем изучается уровень развития инвестиционной активности в банковской системе, существующие проблемы и основные факторы, влияющие на ее эффективность. В частности, анализируется состав инвестиционного портфеля коммерческих банков, их участие на рынке ценных бумаг, кредитная политика и уровень использования финансовых ресурсов. Также рассматривается роль банков в финансировании реального сектора и современные механизмы, способствующие расширению инвестиционной активности. По результатам исследования, важную роль в наращивании инвестиционной активности играют достаточность капитала, система управления рисками и внедрение цифровых технологий. Также положительное влияние на развитие инвестиционной активности банков оказывают инвестиционная среда и проводимые государством экономические реформы.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиции, инвестиционная активность, банковская система, экономический рост, инвестиционный портфель, ценные бумаги, кредитование, финансовые ресурсы.

Abstract: This study is devoted to the analysis of the current state of increasing the investment activity of commercial banks. It studies the level of development of investment activity in the banking system, existing problems and the main factors affecting their effectiveness. In particular, the composition of the investment portfolio of commercial banks, their participation in the securities market, lending policy and the level of use of financial resources are analyzed. The role of banks in financing the real sector and modern mechanisms serving to expand investment activity are also considered. According to the results of the study, capital adequacy, risk management system and the introduction of digital technologies play an important role in increasing investment activity. Also, the investment environment and economic reforms created by the state have a positive impact on the development of investment activity of banks.

Keywords: commercial banks, investment, investment activity, investment activity, banking system, economic growth, investment portfolio, securities, lending, financial resources.

KIRISH

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Banklar moliya tizimining asosiy bo'g'ini sifatida investitsion jarayonlarda faol ishtirok etib, real sektorni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash orqali iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bank tizimini isloh qilish, ularning kapital bazasini mustahkamlash va investitsion imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, banklarning real sektor bilan aloqalarini kuchaytirish, uzoq muddatli kreditlashni rivojlantirish hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Banklar real



sektorni moliyalashtirish orqali investitsion jarayonlarning asosiy ishtirokchisi hisoblanadi. Shu bois, ularning investitsion faoliyatini kengaytirish va samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning hozirgi holatini o'rganish bo'yicha mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonning institutsional, moliyaviy va boshqaruv omillari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Jumaev N.X. va Karimov N.G'. 2011-yilda investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish masalalarini tahlil qilib, bank resurs bazasini kengaytirish, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini jalb etish hamda investitsion loyihalarni kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslab bergan. Ularning yondashuvi banklarning investitsion faolligi moliyaviy resurslarning barqarorligi va ularni samarali taqsimlash bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Jo'raev I. 2017-yilda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalarini o'rganib, banklarning fond bozorida ishtirokini kengaytirish investitsion daromadlilikni oshirish va risklarni diversifikatsiya qilishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Muallif qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi banklar uchun yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratishini qayd etadi, bu esa investitsion faollikning zamonaviy shakllarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kamilova I.X. 2019-yilda tijorat banklarining investitsion kreditlash amaliyotini tahlil qilib, investitsiya loyihalarini baholash tizimini takomillashtirish, kredit risklarini kamaytirish va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi. U investitsion kreditlashni rivojlantirish banklarning real sektorni moliyalashtirishdagi rolini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Omonov A.A. 2008-yilda tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalarini o'rganib, bank aktivlari va passivlarini muvozanatli boshqarish investitsion faoliyatni kengaytirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotida resurslardan oqilona foydalanish banklarning investitsion salohiyatini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Sattarov O.B. 2018-yilda bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqib, moliyaviy barqarorlik investitsion faollikni rivojlantirishning asosiy sharti ekanligini qayd etadi. Muallif bank tizimidagi barqarorlik darajasi investitsiya operatsiyalarining hajmi va sifati bilan bevosita bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Rabimqulov Sh.M. 2024-yilda tijorat banklari investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish masalalarini zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilib, banklarning investitsion strategiyasini takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish va innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish zarurligini asoslaydi. Muallif investitsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuv zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar tijorat banklarining investitsion faolligi hozirgi sharoitda moliyaviy resurslar bazasi, fond bozori rivojlanishi, investitsion kreditlash amaliyoti, bank tizimi barqarorligi hamda resurslarni samarali boshqarish darajasi bilan belgilanayotganini ko'rsatadi. Shu sababli investitsion faollikni oshirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar ushbu omillarni kompleks ravishda hisobga olishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari, Markaziy bank statistik ma'lumotlari hamda ochiq axborot manbalaridan olingan ko'rsatkichlar asosida ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Ushbu ma'lumotlar vaqt qatorlari va panel ko'rinishida tahlil qilinib, trend, korrelyatsion va regressiya usullari orqali investitsion faollikning hozirgi holati hamda unga ta'sir etuvchi omillar baholandi.

Tahlil va natijalar

Respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibi tahlili 2018–2025-yillar davomida bank passivlarida majburiyatlar asosiy ulushni egallab kelayotganini ko'rsatadi. Bank majburiyatlarining ulushi 2018–2019-yillarda 87,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 81,3 foizgacha kamaygan. Bu davrda bank kapitalining ulushi 18,7 foizgacha oshgan bo'lib, banklar moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va risklarni kamaytirish maqsadida kapital bazasini kengaytirganini bildiradi. Keyingi yillarda majburiyatlar ulushi yana o'sib, 2023–2025-yillarda 85 foizdan yuqori darajada shakllangan (1-jadval).

1-jadval
Respublikamiz tijorat banklari resurslari tarkibi, foiz hisobida¹

№	Ko'rsatkichlar	Yillar (01.01. holatiga)							
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1.	Bank majburiyatlarning ulushi (majburiyatlar/passiv)	87,6	87,6	81,3	84,1	84,1	85,7	85,1	85,1
2.	Bank kapitalning ulushi (kapital/passiv)	12,4	12,4	18,7	15,9	15,9	14,3	14,9	14,9
3.	Qoplash koeffitsiyenti (kapital/majburiyatlar)	14	14	23	19,0	19,0	16,7	17,5	17,5

Bank kapitali ulushi esa 2020-yildagi yuqori ko'rsatkichdan so'ng bosqichma-bosqich pasayib, 2025-yilga kelib 14,9 foizni tashkil etgan. Bu holat banklarning faoliyatida jalb qilingan mablag'lar ulushi ortib borayotganini anglatadi. Qoplash koeffitsiyenti ham 2020-yilda 23 foizgacha oshgan bo'lsa, keyingi yillarda 17–19 foiz oralig'ida barqarorlashgan. Umuman olganda, mazkur ko'rsatkichlar bank tizimida kapital yetariligi saqlanib qolayotganini, biroq majburiyatlarga tayanish darajasi yuqoriligicha qolayotganini ko'rsatadi.

Tijorat banklari kredit qo'yilmalari iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishida muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Kredit resurslarining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi mamlakat iqtisodiy siyosati ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bank kreditlarining hajmi sezilarli darajada oshib, ularning iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi ulushi o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, real sektorni qo'llab-quvvatlash, aholi farovonligini oshirish va xizmatlar sohasini rivojlantirishda kreditlarning roli ortib bormoqda. Shu bois, kredit qo'yilmalari tarkibini tahlil qilish ularning samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2021–2025-yillar davomida tijorat banklari kredit qo'yilmalari umumiy hajmi 326,4 trln so'mdan 604,0 trln so'mga yetib, 1,85 baravarga oshgan. Eng katta ulush sanoat sohasiga to'g'ri kelib, 2021-yildagi 36,9 foizdan 2025-yilda 28,8 foizgacha kamaygan bo'lsa-da, hajm jihatidan 117,6 trln so'mdan 142,7 trln so'mga oshgan. Bu esa sanoatning ustuvor tarmoq sifatida saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar keskin oshib, 69,5 trln so'mdan 220,3 trln so'mga yetgan va ulushi 19,8 foizdan 33,3 foizgacha ko'tarilgan. Bu aholi iste'mol kreditlari va ipoteka kreditlarining kengayganidan dalolat beradi. Qishloq xo'jaligi va qurilish sohaslarida ham o'sish kuzatilgan bo'lib, mos ravishda 174,3 foiz va 203,5 foizga oshgan. Transport va kommunikatsiya hamda moddiy-texnik ta'minot sohaslarida ulushning pasayishi kuzatilgan. Uy-joy kommunal xizmatlari esa hajm jihatidan kamaygan yagona tarmoq hisoblanadi. Shu bilan birga, "boshqa sohaslar" bo'yicha kreditlar hajmi 2,3 baravarga oshgan (2-jadval).

2-jadval
Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi²

Ko'rsatkichlar nomi	2021-y.		2022-y.		2023-y.		2024-y.		2025-y.		2025-yilda 2021-yilga nisbatan o'zgarishi	
	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	da
Sanoat	117,6	36,9	126,6	36,0	140,2	32,5	153,4	29,7	142,7	28,8	25,1	121,3
Qishloq xo'jaligi	35,0	10,1	42,1	10,7	47,3	10,8	50,3	10,0	61,1	9,4	26,0	174,3
Qurilish sohasi	9,3	2,7	10,4	2,8	12,3	2,7	13,0	2,6	18,9	2,4	9,6	203,5
Savdo va umumiy xizmat	27,4	7,2	28,9	8,4	32,5	7,4	38,1	6,9	43,5	7,2	16,1	158,9
Transport va kommunikatsiya	28,7	9,6	29,7	8,8	34,3	7,6	32,8	7,3	33,7	6,2	5,0	117,5
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	3,8	1,4	3,9	1,2	4,1	1,0	4,2	0,9	4,7	0,8	0,9	124,5
Uy-joy kommunal xizmati	2,3	1,4	1,9	0,7	2,3	0,5	2,3	0,5	1,9	0,4	-0,4	81,9
Jismoniy shaxslar	69,5	19,8	100,9	21,3	148,6	25,9	177,5	31,5	220,3	33,3	150,8	317,0

1 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



Boshqa sohalar	32,7	10,9	45,6	10,0	49,8	11,7	61,5	10,6	77,2	11,5	44,4	235,7
Jami	326,4	100,0	390,0	100,0	471,4	100,0	533,1	100,0	604,0	100,0	277,6	185,1

Tahlil shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kreditlari hajmi sezilarli oshgan bo'lib, ularning tarkibida jismoniy shaxslar ulushi keskin ortgan. Shu bilan birga, sanoat yetakchi o'rinni saqlab qolmoqda. Kelgusida kredit resurslarini ishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirish va ularning samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari tomonidan ajratiladigan chakana kreditlar aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirishda muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda chakana kreditlash hajmi sezilarli darajada kengayib, uning tarkibida ipoteka, iste'mol, mikroqarz va mikrokreditlar ulushi o'zgarib bormoqda. Ushbu jarayonlar aholi daromadlari, moliyaviy savodxonligi hamda bank tizimining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois, chakana kreditlar tarkibini tahlil qilish ularning iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega (3-jadval).

3-jadval

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan chakana kreditlar tarkibi³

Ko'rsatkichlar	2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.		2025 y.		2025 yilda 2021 yilga nisbatan o'zgarishi	
	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	% da
Ipoteka krediti	9,8	24,2	14,4	22,0	16,9	16,8	17,1	16,3	19,0	13,2	9,2	93,6
Iste'mol krediti	9,7	23,9	21,6	33,0	40,1	40,1	18,5	17,7	20,8	14,4	11,1	115,0
shu jumladan: Avtokredit	8,5	21,0	19,6	30,0	36,6	36,5	17,1	16,3	19,3	13,4	10,8	127,3
Ta'lim krediti	0,3	0,7	1,8	2,7	2,8	2,8	1,3	1,2	1,2	0,9	1,0	362,8
Mikroqarz	10,0	24,6	16,7	25,6	28,7	28,7	45,8	43,8	67,6	47,0	57,7	579,6
Mikrokredit	6,9	16,9	9,2	14,0	11,4	11,4	17,4	16,6	25,8	17,9	18,9	275,9
Overdraft	2,6	6,4	1,8	2,8	0,7	0,7	1,2	1,1	0,8	0,6	-1,8	-68,8
Boshqa	1,7	4,1	1,6	2,5	2,4	2,4	4,6	4,4	9,9	6,9	8,3	495,6
Jami	40,5	100,0	65,3	100,0	100,2	100,0	104,7	100,0	143,9	100,0	103,4	255,2

Tahlil natijalariga ko'ra, 2021–2025-yillar davomida chakana kreditlar hajmi 40,5 trln so'mdan 143,9 trln so'mga yetib, 3,5 baravardan ortiq o'sgan. Bu banklarning aholi bilan ishlash faolligi keskin oshganini ko'rsatadi. Mikroqarzarlar eng yuqori o'sish sur'atini namoyon etib, 10,0 trln so'mdan 67,6 trln so'mga yetgan va 579,6 foizga oshgan. Bu kichik biznes va kundalik ehtiyojlar uchun qisqa muddatli moliyalashtirishning kengayganini bildiradi. Iste'mol kreditlari ham sezilarli o'sib, 9,7 trln so'mdan 20,8 trln so'mga yetgan bo'lsa-da, ulushi 14,4 foizgacha kamaygan.

Avtokreditlar 127,3 foizga oshib, iste'mol kreditlarining asosiy qismini tashkil etishda davom etmoqda. Ta'lim kreditlari eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatib, 362,8 foizga oshgan bo'lsa-da, umumiy tarkibdagi ulushi hali ham kichik.

Ipoteka kreditlari hajm jihatidan oshgan bo'lsa-da, ulushi 24,2 foizdan 13,2 foizgacha kamaygan. Mikrokreditlar ham barqaror o'sib, 275,9 foizga oshgan. Overdraft kreditlari esa sezilarli darajada kamayib, -68,8 foizni tashkil etgan. "Boshqa" kredit turlari esa keskin o'sish (495,6 foiz) ko'rsatgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, chakana kreditlar hajmi keskin oshgan va eng yuqori o'sish mikroqarz hamda ta'lim kreditlarida kuzatilgan. Ipoteka va overdraft kreditlarining ulushi kamaygan. Umuman olganda, banklarning aholi bilan ishlash faolligi kuchayib, chakana kreditlash tarkibi diversifikatsiyalashgan. Kelgusida uzoq muddatli kreditlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim masalalaridan biri bo'lib, u iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish hajmining kengayishi hamda real sektorning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Bank tizimi orqali investitsion resurslarning iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilishi kapitalning samarali taqsimlanishini ta'minlab, milliy iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining investitsion faoliyati nafaqat kreditlash jarayonini, balki uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, kapital bozorini rivojlantirish hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga ko'maklashishni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bank tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy resurslarni real sektorga yo'naltirish va investitsiya muhitini yaxshilash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat banklarining transformatsiyasi, xususiy banklar ulushining oshishi, raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi hamda kreditlash jarayonlarining soddalashtirilishi banklarning investitsion imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini liberallashtirish, foiz stavkalarini bozor tamoyillariga moslashtirish ham investitsion jarayonlarni faollashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunga qaramasdan, mavjud bank tizimida investitsion faollikni yanada oshirishga xizmat qiluvchi ayrim rivojlanish imkoniyatlari ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, uzoq muddatli resurslar bazasini kengaytirish zarurati, kredit portfelida qisqa muddatli iste'mol kreditlarining ustunligi fonida investitsion yo'nalishlarni kuchaytirish imkoniyati, investitsion risklarni samarali boshqarish zarurati hamda banklarning investitsion loyihalarni chuqur tahlil qilish bo'yicha institutsional salohiyatini yanada rivojlantirish istiqbollari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, kapital bozorini yanada rivojlantirish banklarning investitsion instrumentlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining investitsion faolligi iqtisodiyotning tarmoqlar kesimidagi rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirilgan kreditlar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda chakana kreditlash, ipoteka va mikroqarz segmentlarining tez sur'atlarda o'sishi banklarning iste'mol bozoriga yo'naltirilganligini kuchaytirmoqda. Bu esa investitsion kreditlar ulushining nisbatan kamayishiga olib kelmoqda.

Shu sababli, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish muammosi kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda banklarning resurs bazasini kengaytirish, uzoq muddatli depozitlarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda investitsion risklarni kamaytirish bo'yicha samarali instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tijorat banklarining so'nggi yillardagi faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, bank tizimining umumiy kredit portfeli barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil holatiga kelib bank tizimining kredit portfeli 580 trln so'mdan ortiqni tashkil etib, iqtisodiyotga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar hajmi sezilarli darajada kengaygan.

Biroq kredit portfelining tarkibiy tuzilmasi tahlil qilinganda, investitsion kreditlar ulushi iste'mol kreditlariga nisbatan pastroq ekanligi kuzatiladi. Xususan, chakana kreditlar segmentida mikroqarzlilar va iste'mol kreditlari tez sur'atlarda o'sib borayotgan bo'lsa, ishlab chiqarish va investitsion loyihalarga yo'naltirilgan kreditlar ulushi nisbatan sekin o'smoqda.

So'nggi yillarda jismoniy shaxslarga berilayotgan kreditlar hajmi keskin oshgan bo'lib, bu banklarning iste'mol bozori segmentiga yo'naltirilgan strategiyasini kuchaytirganini ko'rsatadi. Biroq bu holat real sektorni moliyalashtirishdagi investitsion faollikni nisbatan cheklab qo'ymoqda. Masalan, ipoteka va iste'mol kreditlarining o'sishi iqtisodiy faollikni oshirsa-da, ular to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiruvchi investitsiyalar emas.

Sanoat va qishloq xo'jaligi sohalariga yo'naltirilgan kreditlar barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, ularning ulushi umumiy kredit portfelida kamayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Bu esa banklarning investitsion strategiyasida iste'mol kreditlariga og'ish mavjudligini anglatadi.

Banklarning investitsion faoliyatiga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil bu resurs bazasining tarkibidir. Uzoq muddatli depozitlar ulushi pastligi sababli banklar ko'proq qisqa muddatli kreditlar berishga majbur bo'lmoqda. Bu esa investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklarining investitsion faolligi oshib bormoqda, biroq uning tarkibiy tuzilmasi hali ham iste'mol kreditlari foydasiga og'gan. Kelgusida investitsion kreditlashni kengaytirish, uzoq muddatli resurslarni jalb qilish va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish zarur.

Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy ko'rsatkichlari — aktivlar, kreditlar, kapital va depozitlar — iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish darajasini aks ettiradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bank tizimini isloh qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va kreditlash hajmini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bank aktivlarining YalMga nisbati, kredit portfelining o'sish sur'atlari hamda depozitlar dinamikasi iqtisodiyotning moliyaviy chuqurlashuv jarayonlarini ko'rsatadi. Mazkur tahlilda 2020–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganilib, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri baholanadi. Bu esa bank tizimining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va kelgusidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi (4-jadval).



4-jadval

Bank tizimi asosiy ko'rsatkichlarining 2020-2025-yillarda o'zgarishi dinamikasi, mlrd. so'mda (1-yanvar holatiga)⁴

Ko'rsatkichlar	2020	2022	2023	2024	2025
YalM	668038	820537	995573	1204485,4	1454573,9
Aktivlar	366121	444922	556746	652157,1	769330,4
Aktivlarning YalMga nisbati, foizda	54,8 %	54,2 %	55,9 %	54,1 %	52,9 %
Kreditlar	276975	326386	390049	471406	533121,2
Kreditlarning YalMga nisbati, foizda	41,5 %	39,8 %	39,2 %	39,5 %	36,7 %
Kapital	58351	70918	79565	97079	114792,4
Bank kapitalining YalMga nisbati, foizda	8,7 %	8,6 %	8,0 %	8,1 %	7,9 %
Depozitlar	114747	156190	216738	241687	308692,3
Depozitlarning YalMga nisbati, foizda	17,2 %	19,0 %	21,8 %	20,3 %	21,2 %

Tahlil natijalariga ko'ra, 2020–2025-yillar davomida O'zbekiston YalM 668 trln so'mdan 1 454 trln so'mga yetib, 2,1 baravardan ortiq o'sish qayd etilgan. Bu iqtisodiyotning barqaror kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bank aktivlari ham 366 trln so'mdan 769 trln so'mga oshib, sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Biroq aktivlarning YalMga nisbati 54,8 %dan 52,9 %gacha pasaygan, bu bank tizimi o'sish sur'ati YalM o'sishidan biroz past ekanligini bildiradi.

Kredit portfeli 276 trln so'mdan 533 trln so'mga yetib, deyarli 1,9 baravarga oshgan. Shunga qaramay, kreditlarning YalMga nisbati 41,5 %dan 36,7 %gacha kamaygan, bu esa iqtisodiyotning kreditga bog'liqligi nisbatan pasayganini ko'rsatadi. Bank kapitali 58 trln so'mdan 114 trln so'mga oshgan bo'lsa-da, uning YalMga nisbati 8,7 %dan 7,9 %gacha kamaygan. Bu kapitalning o'sishi YalM o'sishidan past ekanligini anglatadi.

Depozitlar dinamikasi esa ijobiy tendensiyani ko'rsatadi: 114 trln so'mdan 308 trln so'mga oshgan. Depozitlarning YalMga nisbati ham 17,2 %dan 21,2 %gacha ko'tarilgan bo'lib, bu aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotganini bildiradi. Umuman olganda, bank tizimi ko'rsatkichlari barqaror o'smoqda, biroq kredit va kapitalning YalMga nisbiy ulushi biroz pasayish tendensiyasiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishning hozirgi holatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda bank tizimida investitsion faoliyatning rivojlanish darajasi, mavjud muammolar hamda ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilgan. Xususan, tijorat banklarining investitsion portfeli tarkibi, qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki, kreditlash siyosati va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, banklarning real sektorni moliyalashtirishdagi roli hamda investitsion faoliyatni kengaytirishga xizmat qiluvchi zamonaviy mexanizmlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, investitsion faollikni oshirishda kapital yetariligi, risklarni boshqarish tizimi va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilayotgan investitsion muhit va iqtisodiy islohotlar banklarning investitsion faolligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaev N.X., Karimov N.G'. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, sentyabr, 2011-yil.
2. Jo'raev I. O'zbekistonda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017-yil.
3. Kamilova I.X. Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirishning dolzarb masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2019 yil.
4. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008.
5. Rabimqulov Sh.M. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafi doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –T: TMI, 2024. – 58 b.
6. Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasin takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 25-26.

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti cbu.uz ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan hisoblangan.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100